

**VETERINARIYA TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING  
INTEGRATIV YONDASHUVI HAMDA TADQIQOTCHILIK  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

**Narziyeva Nargiza Norkuziyevna**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasi mudiri,  
dotsent*

**Suvanova Dilnura Kurbanovna**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasi  
assistenti*

**Sultonova Ozoda Rajabovna**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasi  
assistenti*

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan oliy ta’limning davlat ta’lim standartini qabul qilinishi oliy ta’lim, talaba, fan va ishlab chiqarishdan iborat bo’lgan integratsiyalashuv natijasida kompetentli fikrlovchi yoshlar vujudga kelganliklari bilan izohlanadi.

**Kalit so’zlar:** veterinariya, integratsiya, integrativ funksiya, integratsiyalash, integrativ yondashuv, talabaning ijodiy faolligi, tadqiqotchilik kompetensiyalarini.

**INTRODUCTION.** Ta’lim sifatiga zamonaviy yondashuvning tahlillari shuni ko’rsatmoqdaki, talabalarni hayoti davomida o‘qib-o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish, ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish samarali omillardan hisoblanadi. Ushbu holat talabalarning ijodiy faolligini oshiradi, tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga asos yaratadi, bu esa talabalarning o‘z kasb yo‘nalishini tanlashlarida o‘ta muhimdir.

Undan tashqari, butun dunyoda bo‘layotgan ta’lim sohasidagi islohotlar ham, xususan Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari, Yevropa va Amerika qit’alaridagi 10-15 yildan buyon amalga oshirilayotgan ta’limga oid islohotlar ta’sirida O‘zbekistonning kompetensiyali ta’lim strategiyasi yaratildi.

O‘quv jarayoniga ta’limning interfaol shakllari, texnologiyalari – integrativ dars, integrativ kun, o‘quvchini tanqidiy fikrlashga undovchi metodlar jadal joriy qilinmoqda. Ta’limning globallashuvi hamda sog‘lom va muammoli ta’lim muhitini

tashkil etish orqali bolalarni birgalikda o‘qitish maqsadiga xizmat qiladigan integrallashgan ta’limni tashkil qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Integrallashgan kasblar paydo bo‘lmoqda. Talabalarni tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda esa integrasiyalashgan ta’limning o‘rni ayniqsa, muhimdir.

**Research Methodology.** Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuvni qo‘llash va unda axborotlarni qayta ishlash texnologiyasidan foydalanish pedagogikada o‘ziga xos innovatsion yondashuv bo‘lib, uning yordamida tadqiqot jarayonida ijobiy sifat o‘zgarishi va yuqori samaradorlikka erishiladi.

Bu talablarni hal qilish esa ijtimoiy, texnologik islohotlarga bog‘liq. Bu islohotlarning barchasi talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan.

Ma’lumki, **Integratsiya**(lot. integratio — tiklash, to’ldirish, integer — butun so‘zidan olingan) — 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni, differensiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish.

**Integrativ yondashuv** – axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash jarayonidir.

Bu yondashuv o‘rganilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo‘lishi, bilimlarga tizimli yondashish, talabalar bilimlarini egallashning eng maqsadga muvofiq yo‘llarini o‘rgatishdan iborat.

Integrativ yondashuv ta’lim-tarbiya jarayonlariga kompleks yondashuv, tizimi yondashuv, tizimiylahlil tadqiqot metodlarini joriy etishda va bilishning induksiya hamda deduksiya metodlaridan foydalanishda qo‘l keladi.

Integrativ yondashuv ta’lim va tarbiyani iyerarxik tizim sifatida qarab, ular ustida olib boriladigan tadqiqotlar olib borishda ijobiy samaralarni kafolatlaydi.

O‘quv jarayoni professor-o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida ta’lim oluvchilarga ma’lum bir sharoitda, muayyan ketma-ketlikda ko‘rsatgan ta’sirini va ta’lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi, texnologiyalashgan ta’limiy tadbirlar olib borishda rivojlanib boradi.

Integrativ yondashuv bilimlarni o‘zlashtirishning hamma jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalahtirish, muammoning yechimini baholash faoliyatni tashkil qilish metodlarini o‘z tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayondan iborat.

**Integratsiya** – ta’lim jarayonida ta’lim berishning maqsad va vazifalarini bir butunlikda birlashtirishdir.

**Integrativ funksiya** – bu funksiya oliv ta’lim va ishlab chiqarishni bog‘lovchi bo‘g‘imdir. Bunda oliv ta’lim mazmunidagi barcha tashkil etuvchi elementlar majmuasini – bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, me’yor, pedagogik tizimlarni o‘zida mujassamlab: bilimlarni tizimlashtirishni tashkil etish, talabalarda har xil predmetlarda o‘tiladigan va texnik, texnologik jarayonlarda sodir bo‘ladigan hodisalar, tushunchalar, g‘oyalilar, nazariyalar orasidagi o‘zaro integrasiya va har tomonlama bog‘lanish borligini o‘rnata olish kompetensiyalarni rivojlantirish; bu bog‘lanishlar ilmiy va kasbiy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beruvchi ekanini tushuntirishni ta’minalash; talabalarda tadqiqotchilik, ijodkorlik masalalarini nazariy to‘g‘ri texnik va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq yechishda, turli o‘quv predmetlarini o‘rganishda olgan bilim va mahoratlari asosida texnikaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik, tashkiliy-pedagogik tizimlar maqsadi, mezoni va vazifasini to‘g‘ri rivojlantirish kompetensiyalarini hosil qilishlarini nazarda tutadi.

**Integratsiyalash** – lotincha “integer” - umumiylilik, “integerara” - umumiylikni to‘ldirish, yaratish, tiklash degan ma’noni bildirib, u ta’lim mazmunidagi uyg‘unliklarni ta’minalash muammolari ham integratsiyalashning shug‘ullanadigan sohasi hisoblanadi. Ta’lim va tarbiyada esa bilimlar, tushunchalar, ko‘nikmalar malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishlarni umumlashtirib, qonun yoki qoida ko‘rinishiga keltirishni amalga oshiradi.

Integratsiyalash tushunchasi muhim ilmiy termin bo‘lib, u umumlashtirish, xulosalashlarda metodologik vosita bo‘lib hisoblanadi, chunki uning yordamida jarayon va hodisalar mazmunlari orasidagi umumiy uyg‘unlik algoritmlari yaratiladi.

Tadqiqot ishlarini bajarishda va turli fanlardagi ta’lim mazmunlarini umumlashtirish va to‘ldirishda integratsiyalash jarayoni doimo qo‘l keladi va ko‘zlangan maqsadga erishishni kafolatlashga yordam beradi.

**O‘qitish mazmunini integratsiyasi** – o‘zaro ta’sir, aloqa, bir-biriga o‘tish jarayoni va natijalari, bilimlar sintezi, faoliyat turlari va iqtidori (qobiliyati) yaxlit bir tizim deb tushunilishidir. Veterinariya oliv ta’lim muassasalarida o‘quv fanlarini, shu jumladan ijtimoiy fanlarni tabiiy fanlar bilan, tabiiy fanlarni aniq fanlar bilan, aniq fanlarni ijtimoiy-gumanitar fanlar, barcha fanlarni veterinariya fanlari bilan bog‘lab o‘qitishni talab qiladi. Chunki, birinchidan, muammolar yechimi kompleks tadbirlarni talab qilib, bunga erishish uchun muammoga turli jihatlardan qarash va buning uchun esa turli fanlardan olingan bilimlar zarur bo‘ladi. Ikkinchidan, oliv ta’limda veterinariyaga oid tadqiqotchilik kompetensiyalari faqat ma’lum bir fan asosida aks etmasdan, fanlararo bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Chunki, bironta fan doirasida uni to‘liq amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birgalikda turli fanlarni o‘qitish jarayonida ijodiy izlanishni amalga oshirish imkoniyatlari ham bir xil emas. Ular fanning o‘ziga xos vazifalari va mazmuni bilan belgilanadi. Masalan, radiobiologiya kursida talabalar radioaktiv moddalar va ularning tirik organizmga ta’sirini

o‘rganadilar. Fizkolloid kimyo fanida kimyoviy elementlar, ularning xususiyatlari, atmosferaga kimyoviy moddalarning chiqarilishi va uning ta’sir qilishi, suvlar, mineral moddalar va o‘g‘itlar hamda boshqa tabiiy hodisalar haqidagi tushunchalar keltiriladi. Hayvonlar anatomiyasida tirik organizmlarning atrof-muhit bilan o‘zaro aloqadorligi, biosfera va boshqalar o‘rganiladi. Lotin tili va veterinariya atamalari fanida uchraydigan chorvachilik va veterinariya sohasidagi so’zlarning ma’nosi, tuzilishi va boshqa xususiyatlari o‘rganiladi.

Demak, veterinariya sohasidagi oliy ta’lim muassasalarida tadqiqotchilik faoliyati fanlararo xarakterga ega va tadqiqotchilik kompetensiyalari turli xil aspektlarda, ya’ni lotin tili va veterinariya atamalari, biofizika, hayvonlar anatomiyasi, sohada axborot kommunikatsiya texnolgogiyalari, veterinariya kasb etikasi, lotin tili va farmatsiya terminologiyasi, hayvonlar morfologiyasi, biologik kimyo, biofizika va radiobiologiya, biologiya va genetika va boshqa fan yo’nalishlarining o‘zaro uyg’unligida o’zlashtiriladi.

Turli davrlarda fanlararo aloqadorliklar, uning mazmun mohiyati, ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishdagi ahamiyati haqida B.L.Farberman, R.G.Musina, B.S.Abdullayeva, O.Abduquddusov, N.J.Isaqulova kabi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqotchi N.J.Isaqulova esa ta’lim jarayonida fanlar aloqadorligining ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: ta’lim jarayonini tashkil etishda optimal yo’l; dars mavzusiga turli fanlar yondashadi; darsning qiziqarli tomoni kuchayadi; bir mashg’ulot davomida o’zlashtirilgan axborotlarning ko’lami kengayadi; turli fanlar yuzasidan xulosa chiqarish imkonи shakllanadi; mustaqil fikrlashni amalga oshiradi. Xulosa qilib aytganda, ta’lim sifatini oshirishda fanlararo aloqadorlik pedagogik muammo, prinsip, metod, muhim samarali vosita bo’lib xizmat qiladi.

**Analysis and results.** Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda o’qitishning yangi texnologiyalari rivojlanishi tez o’zgarayotgan axborotlashgan jamiyatda internet saytlari, xalqaro ta’limiy aloqalar, ta’lim muassasalarining yagona axborot fazosi muhim ahamiyatga ega.

Fanlararo ta’lim asosida tadqiqotchilik faoliyati oliy ta’lim muassasalarining professor-o’qituvchilarini o’quv-tadqiqot masalalariga bir xilda yondashishga chorlaydi. Shu sababli o’qituvchi nafaqat o’z fani bo’yicha chuqur nazariy bilimga ega bo’lishi, balki turli uzviy mutaxassislikka oid muammolar topishning zamonaviy uslublariga ega bo’lishi lozim. Ushbu holat ishimizning mohiyatini bildirdi, chunki, talabalarning tadqiqotchilik layoqatini asosiy yo’nalishlari rivojlanishini aks ettirish, ushbu jarayonda umumlashtirilgan ta’lim asosida veterinar mutaxassisi shaxsini shakllantirishning to’kis jarayoni sifatida veterinariya ta’limi doirasida o’zini samarali namoyon etishga qodir, kasbiy pedagogik faoliyatning barcha turlarini bajarish imkoniyatiga ega shaxs tarbiyalanadi.

Talabalarni tadqiqotchilikka yo'naltirishda muayyan ta'lim jarayonidan ko'zlangan maqsad hisobga olinadi.

Ta'lim maqsadlarini qo'yishda quyidagi talablarni hisobga olish tavsiya qilinadi:

1. Mavjud ehtiyoj va muammolarning tahlili maqsadni qo'yishning bosh asosi bo'lib xizmat qilishi, birinchidan, dastlabki imkoniyatlar, vositalar, ikkinchidan, zahiralar kabilar;
2. Maqsadlar muhim muammolarni hal qiladigan darajada dolzarb bo'lisi;
3. Maqsadlar murakkab, biroq real bo'lisi;
4. Maqsadlarning aniq (istalgan natijaning aniq darjasasi va unga erishish muddati ko'rsatilgan holda) shakllantirilgan bo'lisi(ularga erishganlikni aniqlash shuncha oson bo'ladi);
5. Maqsadlar diagnostik, rag'batlantiruvchi, undovchi xarakterga ega bo'lisi;
6. Maqsadlar talabaning oldida turgan vazifalariga mos kelishi va yaqin keljakdagi rivojlanish doirasida bo'lisi;
7. Hamkorlikdagi faoliyat maqsadlari uning barcha qatnashchilariga ma'lum, ular tomonidan tushunilgan va anglangan holda qabul qilingan bo'lisi(bu jamoaviy faoliyat va maqsadlar birligini talab qiladi);
8. Kichikroq aniq maqsadlar yirikroq va uzoq muddatli maqsad va intilishlarga bo'ysungan bo'lisi.

Bu talablar ta'lim maqsadlarining hayotiyligini ta'minlashda muhim masala sifatida namoyon bo'ladi. Quyidagi masalada biz Sohada raqamli texnologiyasi fanining yaylov cho'l o'simliklari biologiyasi va cho'llanishni oldini olish fani bilan aloqasini tadqiq etdik:

Hozirgi kunda talabalar tabiat va jamiyatning o'zaro ta'siri haqida birmuncha ma'lumotga ega bo'lsalarda, ular matematik muammoli vaziyatlarning miqdoriy tavsifi bilan, ya'ni, insonning atrof-muhitga ta'sirini hisoblab chiqish bilan qiziqmaydilar. Ushbu bo'shliqni inson va tabiatning o'zaro ta'siri jarayonlarining miqdoriy ko'rsatkichlarini hisoblash ishlarini o'quv jarayoniga keng tarzda tatbiq etish bilan to'ldirish mumkin.

Yaylov cho'l o'simliklari biologiyasi va cho'llanishni oldini olish darsida tegishli miqdoriy ko'rsatkichlarni olishning samarali usulidan biri – bu muammoli mazmundagi masalalarni tuzish va yechishdir.

Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida matematik ifodalardan foydalanish talabalarning ilmiy dunyoqarashlarini kengaytiradi, raqamlarni taqqoslash, solishtirishga o'rgatadi hamda bu ularni tejamkorlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Raqamlar ustida ishlashni xush ko'rvuchi talabalar faolligini yuqori darajada ta'minlaydi. Tabiiy jarayonlarni baholash va bashoratlash ko'nikmalarini rivojlantirishda assosiy omil hisoblanadi.

Aynan tabiiy fanlarda raqamlar ustida eng ko'p ishlanadi va shu bilan birlashtirilishda ular o'zgaruvchandir. Hozirgi axborotlar hajmi ko'paygan va globallashuv jarayonlari kuchaygan bir davrda professor-o'qituvchi talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning turli fanlardan olgan bilim va malaka, kompetensiyalariga tayanishi, har xil ma'lumotlardan foydalana olishga o'rgatishi zarur. Bu jarayonda o'quv fanlaridan beriladigan axborotlarni tizimlashtirish, masalaga majmuali yondashgan holda inson va tabiat o'rtaсидagi aloqalarni olib berish axborot texnologiyalari bilan fanlararo aloqadorlikda amalga oshiriladi.

**Xulosa.** Yuqoridagilarga asoslanib, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarining yangi o'quv texnologiyalarini ishlab chiqish uchun o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishning didaktik tamoyillari, veterinar-mutaxassis faoliyatining asosiy qoidalari va talabalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganish uchun shaxsga yo'naltirilgan integrativ yondashuvlarga asoslangan holda barcha kerakli imkoniyatlar mavjud bo'lishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Narzieva, N. N. (2023). DEVELOPMENT OF RESEARCH COMPETENCIES IN THE CONDITIONS OF INTEGRATED EDUCATION IN STUDENTS ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. *Thematics Journal of Education*, 8(Q1).
2. Narzieva, N. N. (2023). DEVELOPMENT OF RESEARCH COMPETENCES OF VETERINARY SPECIALISTS IN THE MODERNIZATION OF VETERINARY EDUCATION. *International Journal of Engineering Mathematics (Online)*, 5(3).
3. Norkuzievna, N. N. (2022). Development Of Research Competences Of Future Veterinary Specialists In The Process Of Lessons. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 15, 41-43.
4. Нарзиева, Н. Н. (2022). СПОРТ ТУРЛАРИ БЎЙИЧА ТРЕНЕР-ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ РИВОЖЛАНТИРИШ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 980-983.
5. Turgunboev, A., & Narzieva, N. N. (2022). ЗАРДЎШТИЙЛИКНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАНБАИ-“АВЕСТО” ДАГИ ВЕТЕРИНАРИЯ ВА ЧОРВАЧИЛИК ТАЛҚИНИ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 1180-1183.
6. Norkuzievna, N. N., & Solievna, S. G. (2022). Formation of Students' Research Skills in the Process of English Lessons. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 8, 141-143.
7. Norkuzievna, N. N., & Solievna, S. G. (2022, March). DEVELOPING RESEARCH SKILLS ON THE BASIS OF COMPETENT APPROACH TO STUDENTS IN AN INTEGRATED LEARNING CONDITION. In *E Conference Zone* (pp. 151-154).
8. Turgunboev, A., & Narzieva, N. N. (2022). Zoroastrianism's source of education-interpretation of veterinary and animal husbandry in "Avesta. *Scientific Journal of Agrobiotechnology and Veterinary Medicine*, ps, 1180-1183.
9. Narzieva, N., Namazova, U., & Ernazarov, T. (2022). Factors of the development of socio-cultural competence of history teachers in the process of professional development. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (109), 171-173.
10. Нарзиева, Н. Н., & Гаппаровиҷ, Ҳ. А. ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАР АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЗЛАНИШ, ТАДҚИҚОТ МАДАНИЯТИНИ БОСҚИЧМА-БОСҚИЧ

ШАКЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021, 1, 528.

11. Faxriddinovna, U. G., Norqo'ziyevna, N. N., & Azimovna, M. N. (2020). SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA INNOVATSION METODLAR ORQALI ALISHER NAVOIY ASARLARINI O'QUVCHILARGA O'RGGATISH (1-SINF MISOLIDA). *Интернаука*, 29, 55.
12. Hasanovna, S. K., & Nargiza, N. (2019). The advantages of teaching grammar through games. *Достижения науки и образования*, (6 (47)), 30-31.
13. Нарзиева, Н. Н. (2019). Умумтаълим мактаб ўқувчиларида таянч компетенциялар асосида тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш: пед. фан...(PhD) дисс. *Самарқанд: СамДУ*.
14. Narzieva, N. N. (2019). Formation of research skills in general education school students based on basic competencies: ped. science...(PhD) diss. *Samarkand: SamDU*.
15. Khusenova, N. I., Fayzieva, F. N., Narzieva, N. N., & Rajabova, G. R. (2019). THE CONTENT OF TEACHING LISTENING IN ENGLISH AT ELEMENTARY SCHOOL. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 45-47).
16. Нарзиева, Н. (2017). ФОРМИРОВАНИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 156-158).
17. Narzieva, N. (2017). Development of Education And Research Activity Profile Class Students on The Basis of Integrative And Personal Approach, [Www. www. auris-verlag. de](http://www.auris-verlag.de).
18. Рахимов, Б. Х., & Нарзиева, Н. Н. (2016). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВРЕМЕННОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ. In *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития* (pp. 356-360).
19. Назарова, Б., Нарзиева, Н., Умаров, Х., Машарипов, К., & Кулахметова, М. (2011). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ. *Педагогические науки*, (1), 147-151.
20. Избасаров, У., Хушназаров, А., & Хамроев, А. (2020). Лечение дерматологических и гинекологических заболеваний человека и животных. *in Library*, 20(4), 296-299.
21. Davlatov, R. B., & Khushnazarov, A. K. (2024). Diagnosis and chemoprophylaxis of rabbit eymerosis. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 480, p. 03020). EDP Sciences.
22. Раимкулов, И., Хушназаров, А., & Эшкораев, А. (2023). Способы кормления кроликов в современных клетках. *in Library*, 1(1), 52-57.
23. Эшкораев, А., Хушназаров, А., & Давлатов, Р. (2023). Развитие, эпизотология, лечение и профилактика эмериоза кроликов. *in Library*, 1(1), 65-71.
24. Раимкулов, И., Хушназаров, А., Эшкораев, А., & Давлатов, Р. (2023). Химиопрофилактика эмериоза кроликов. *in Library*, 1(1), 56-62.
25. Расулов, У., Хушназаров, А., & Давлатов, Р. (2023). Диагностика и эпизоотология эмериоза кроликов. *in Library*, 1(2), 366-368.
26. Газнакулов, Т. К., Орипов, А. О., Сафаров, А. А., Хушназаров, А. Х., Давлатов, Р. Б., Абдухакимов, Ш., ... & Мавланов, С. (2023). ХС Салимов, МК Бутаев, ЗЭ Рузиев,—Биохавфисзлик.
27. Хушназаров, А. Х., Райимкулов, И. Х., Эшкораев, А. М., & Давлатов, Р. Б. (2023). Куён эймериозининг кимёпрофилактикаси. *SCHOLAR*, 1(2), 56-62.
28. Khushnazarov, A. K., & Davlatov, R. B. (2023). DIAGNOSTICS OF RABBIT EMERIOSIS. *Journal of new century innovations*, 22(3), 72-77.
29. Ergashov, S. I., Xushnazarov, A. X., & Davlatov, R. B. (2023). QUYONLAR EYMERIOZNI DAVOLASHDA KENG QO 'LLANILADIGAN PREPARATLAR. *Journal of new century innovations*, 22(3), 58-64.
30. Хушназаров, А., & Давлатов, Р. (2023). Куён эймериозининг тарқалиши ва патологоанатомик ташҳиси. *Library*, 1(1), 15-17.

31. Mustafakulovich, K. S., & Kurbanovna, S. D. (2023). Effect of Aesthetic Categories on Human Spirituality. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(11), 501-503.
32. Kurbanovna, S. D., & Mustafakulovich, K. S. (2022). The Role of Aesthetic Culture in Educational Processes. *Open Access Repository*, 8(04), 208-210.
33. Vahabov, M. T., Jamolov, L. U., Turgunboev, O., & Suvanova, D. K. (2022). Key Issues of Development Strategy and Educational Propagation of the New Uzbekistan. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(11), 101-109.
34. Kurbanovna, S. D. (2023). GO’ZALIK VA ULUGVORLIK KATEGORIYALARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(10), 96-98.
35. Suvanova, D. (2023). SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SIGNIFICANCE OF RELIGIOUS VALUES IN THE FORMATION OF AESTHETIC CULTURE AMONG YOUNG PEOPLE. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(1 Part 1), 108-115.
36. Суванова, Д. К. (2021). СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У МОЛОДЕЖИ. In *История, современное состояние и перспективы инновационного развития науки* (pp. 86-88).
37. Суванова, Д. К. (2020). ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ МОЛОДЕЖИ. In *Научные исследования: проблемы и перспективы* (pp. 206-210).
38. Suvanova, D., & Karoboyev, S. (2023). THE SIGNIFICANCE OF RELIGIOUS VALUES IN FORMING AESTHETIC CULTURE. *Академические исследования в современной науке*, 2(26), 103-108.
39. Kurbanovna, S. D. (2023). YOSHLARDA ESTETIK MADANIYAT SHAKLLANISHINING METODOLOGIK MASALALAR. *FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"*, 14(1).
40. Мухаммадиев, У. И., Хушназарова, М. И., & Давлатов, Р. Б. (2023). DIAGNOSTICS AND PROPHYLAXIS OF RABBIT PASTEURELLIOS (LITERATURE ANALYSIS).
41. Хушназаров, А., Райимкулов, И., & Эшқораев, А. (2023). ЗАМОНАВИЙ КАТАКЛАРДА ҚҮЁНЛЯРНИ БОҚИШ УСУЛЛАРИ. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(1 Part 2), 52-57.
42. Хушназаров, А. Х., Хушназарова, М. И., & Исокулова, З. Х. (2023). Эймериоид препаратларни қүён эймериозида қўллаш. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(1), 138-143.
43. Khushnazarov, A., Rayimkulov, I., & Eshkoraev, A. (2023). METHODS OF KEEPING RABBITS IN MODERN CAGES. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 3(1 Part 2), 52-57.
44. Khushnazarov, A. K., Khushnazarova, M. I., & Isokulova, Z. K. (2023). EIMERIOCID DRUGS KUYONG EIMERIOSYS KOLLASH. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(1), 138-143.
45. Газнакулов, Т. К., Орипов, А. О., Сафаров, А. А., Хушназаров, А. Х., Давлатов, Р. Б., & Абдухакимов, Ш. & Мавланов, С.(2023). XC Салимов, МК Бутаев, ЗЭ Рузиев,—Биохавфисзик.
46. Khudoyberdievich, K. A., Khushnazarova, M. I., & Isokulova, Z. X. (2022). PREVALENCE, DIAGNOSIS, TREATMENT AND PREVENTION OF RABBIT EMERIOSIS. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(9), 245-249.
47. Давлатов, Р. Б., & Хушназаров, А. Х. (2022). ҚҮЁН ЭЙМЕРИОЗИ ЭПИЗООТОЛОГИЯСИ ДАВОЛАШ ВА ПРОФИЛАКТИКА ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 181-184.
48. Berdiyevich, D. R., Khudoiyberdi o‘g‘li, K. A., & Ilhomovna, K. M. (2022). EPIZOOTOLOGY OF EIMERIOSIS (COCCIDIOSIS) OF RABBITS, TREATMENT AND PREVENTIVE MEASURES. *Ann. For. Res*, 65(1), 602-607.

49. Хушназаров, А., & Давлатов, Р. Б. (2022). Quyon eymeriozini davolashda vazuril preparatining samaradorligi. *Library*, 22(2), 173-174.
50. Хушназаров, А., & Давлатов, Р. (2022). Пастдарғом ва ургут туманларида қуён эймериозининг эпизоотик холати. *Library*, 22(1), 31-32.
51. Хушназаров, А., & Давлатов, Р. (2022). Қуён эймериозини даволашда янги эймериостатикнинг самарадорлиги. *Library*, 22(1), 28-29.
52. Давлатов, Р., & Хушназаров, А. (2022). Epizootology of eimeriosis (coccidiosis) of rabbits, treatment and preventive measures. *Library*, 22(4), 15.
53. Хушназаров, А., & Давлатов, Р. Б. (2022). Эффективность вазурила при лечении эймериоза кролика. in *Library*, 22(2), 173-174.
54. Davlatov, R. B., & Khushnazarov, A. X. (2022). TREATMENT AND PREVENTIVE MEASURES OF THE EPISOTOLOGY OF RABBIT EMERIOSIS. SCIENTIFIC JOURNAL OF AGROBIOTECHNOLOGY AND VETERINARY MEDICINE, 181-184.
55. Давлатов, Р., & Хушназаров, А. (2022). Эпизотология эймериоза (кокцидоза) кроликов, лечение и профилактика. in *Library*, 22(4).
56. Хушназаров, А., & Давлатов, Р. (2022). Эпизотическая ситуация по эмериозу кролика в пастдаргомском и ургутском районах. in *Library*, 22(1), 31-32.
57. Хушназаров, А., & Давлатов, Р. (2022). Эффективность нового эмиеристатического препарата в лечении эймериоза кроликов. in *Library*, 22(1), 28-29.
58. Khushnazarov, A., & Davlatov, R. B. (2022). Rabbit eimeriozin in treatment vazuril of the drug efficiency. *Library*, 22(2), 173-174.
59. Хушназаров, А. X. (2022). ОБЗОР ЛИТЕРАТУРНЫХ ДАННЫХ ПО ХИМИОТЕРАПИИ И ХИМИОПРОФИЛАКТИКИ ЭЙМЕРИОЗА КРОЛИКОВ. *PEDAGOGS jurnali*, 23(2), 83-86.
60. Худойбердиевич, Х. А., Хушназарова, М. И., & Исокулова, З. Х. (2022). ҚУЁН ЭЙМЕРИОЗИННИГ ТАРҚАЛИШИ, ДИАГНОЗИ, ДАВОЛАШ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(9), 245-249.
61. Хушназаров, А., Хабибулаев, С. Л., Рахматова, У., Орлова, Г. И., Толибова, Ф. Т., & Хушназарова, М. И. (2022). Защита кроликоферм от эймериоза. in *Library*, 22(2), 5-8.
62. Хушназаров, А., Хабибулаев, С. Л., Рахматова, У., Орлова, Г. И., Толибова, Ф. Т., & Хушназарова, М. И. (2022). Защита кроликоферм от эймериоза. in *Library*, 22(2), 5-8.
63. Khushnazarov, A. X. (2022). OBZOR LITERATURNYX DANNYX PO KHIMIOTERAPII I KHIMIOPROPHYLAKTIKI EYMEROZA KROLIKOV. *Journal of PEDAGOGS*, 23(2), 83-86.
64. Урокова, М., Акрамова, М., & Хушназаров, А. X. (2021). Эффективные методы лечения эмериозоза у кроликов. in *Library*, 21(2), 115-117.
65. Хушназаров, А., Урокова, М., & Курбонова, М. (2021). Защитим кроликов от эймерий. in *Library*, 21(1), 44-47.
66. Хушназаров, А. X., Урокова, М., & Курбонова, М. И. (2021). Quyonlar eymeriozi va uni oldini olish. *Library*, 21(2), 126-129.
67. Хушназаров, А., Урокова, М., & Курбонова, М. (2021). Защитим кроликов от эймерий. in *Library*, 21(1), 44-47.
67. Хушназаров, А. X., Урокова, М., & Курбонова, М. И. (2021). Rabbits are eymeriosis and its prevention. *Library*, 21(2), 126-129.
69. Urokova, M., Akramova, M., & Khushnazarov, A. X. (2021). Rabbits eimeriozin of treatment efficient methods. *Library*, 21(2), 115-117.
70. Урокова, М., Акрамова, М., & Хушназаров, А. X. (2021). Эффективные методы лечения эмериозоза у кроликов. in *Library*, 21(2), 115-117.
71. Хушназаров, А. X., Урокова, М., & Курбонова, М. И. (2021). Эмериоз кроликов и его профилактика. in *Library*, 21(2), 126-129.
72. Khushnazarov, A., Urokova, M., & Kurbonova, M. (2021). Kuyonlarni emeriozdan asraylik. *Library*, 21(1), 44-47.

73. Khushnazarov, A., Urokova, M., & Kurbonova, M. (2021). Kuyonlarni emeriozdan asraylik. *Library*, 21(1), 44-47.
74. Избасаров, У., Турдиев, А., Дускулов, В., & Хушназаров, А. (2021). Санитарно-гигиеническая оценка полов в животноводческих помещениях в условиях жаркого климата. *in Library*, 21(1), 214-217.
75. Izbasarov, U., Turdiev, A., Duskulov, V., & Khushnazarov, A. (2021). Sanitary and hygienic assessment of floors in livestock buildings in a hot climate. *Library*, 21(1), 214-217.
76. Rajabovna, S. O. (2023, December). OLIY O ‘QUV YURTLARIDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O ‘RNI. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 391-393).
77. Rajabovna, S. O. (2023, December). TALABA YOSHLARNI O ‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO ‘LLASH. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 389-390).
78. Sultanova, O., & Sadullayev, S. (2024). APPLICATION OF MODERN TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF STUDENTS. *Science and innovation*, 3(B2), 431-433.
79. Sultonova, O. (2022). QISHLOQ YOSHLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHVOLI VA UNI YAXSHILASH YO’LLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 127-130.
80. Rajabovna, S. O. (2023). THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY IN YOUTH EDUCATION. *Academia Science Repository*, 4(04), 85-89.